

## HAZRATI XIZR MAJMUASI TARIXIDAN.

Sattarova I.G.

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika  
instituti katta o'qituvchisi

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada Hazrati Xizr masjidi va Islom Karimov maqbarasi tarixiga oid ma'lumotlar kiritilgan. Ma'lumotlar manbalarga tayangan holda yoritilgan. Bu hududda ziyoratchilar uchun yaratilgan sharoitlar, ulardagi epigrafik yozuvlar ham haqida ma'lumolar berilgan.

**KALIT SO'ZI:** Hazrati Xizr masjidi, Islom Karimov maqbarasi, afsonaviy quduq, Abu Tohirxoja "Samariya", "Qandiya", "Qasosul anbiyo".

"Vatan uchun, xalq uchun butun borlig'ini baxsh etgan, o'zini ayamadan, fidokorona xizmat qilgan ulug' zotlarga yuksak ehtirom ko'rsatish bizning mamlakatimizda doimo birinchi o'rinda turishi, kerak bo'lsa, hayotimiz qoidasiga aylanishi zarur. Shundagina biz o'z qadr-qimmatimizni chuqur anglagan, boshqalar ham hurmat qiladigan xalq va millat sifatida o'zligimizni namoyon qila olamiz".

*Shavkat Mirziyoev*

Shahrimizning eng muqaddas qadamjo va me'moriy obidalaridan biri, Samarqandning birinchi qurilgan musulmon masjidi Hazrati Xizr masjididir. Hazrati Xizr masjidi Afrosiyobning janubida, Samarqandning eski darvozalaridan biri Ohanin darvoza, boshqacha qilib aytganda Hazrati Shohdarvozasi qarama-qarshisida joylashgan. Abu Toxirxojaning «Samariya» asarida: «Hazrati Xizr alayxissalom masjidi. Bu masjid shahar tashqarisida Afrosiyob tepasi ustida, Ohanin, boshqacha aytganda Hazrati shoh darvozasining qarshisidadir. Aytadilarkim, Samarqandda eng avval solingan masjid ushbu. 712-yilda Imom Qutayba Hazrati Xizr ishorati bilan imorat qilingandir. Boshqa bir rivoyatda sahobalar tiklab masjid qiblasini Makkaga qaratib to'g'rilagan. Ba'zi bir rivoyat ma'lumotlarga ko'ra, masjid mehrobini Hazrati Xizr to'g'rilagan. (Derlarkim, 40 dushanba kuni ulashtirib bomdod namozini o'sha masjidida o'tasa, Hazrati Xizrni a.s.ni ko'rar emish.) 1854-yil masjid Amir Muzaffarxonning xonligi chog'ida qayta imorat qilingan»[1].

Hazrati Xizr bilan bog'lik ma'lumotlar «Qandiya», «Qasosul anbiyo» va boshqa tarixiy manbalarda ham uchraydi.



O'tmishda Samarqand shahri ko'plab marotaba istilochilar tomonidan zabt qilingan va vayronagarchiliklar bo'lgan. Har bir tarixiy vaziyatda ushbu yodgorlikka alohida e'tibor qilingan.

Masjid o'zining joylashuvi jihatidan shaharning eng baland nuqtasidan o'rin olgan bo'lib, yana bir asosiy tomoni uning shahardan tashqari, Kesh darvozasi yo'li yoqasida joylashishidir. Ushbu darvozadan Baktriya, Hindiston. Eron va boshqa davlatlardan savdo karvonlari kirib kelishgan va uning yon bag'rida butun shaharni ichimlik suvi bilan ta'min qilib turuvchi Arziz qudug'i va arig'i joylashishi masjidning mavqeini yanada ko'targan.

Muhammad Ali Parvonachi vaqfnomasida (XIX asr) aytiladiki, Samarqandda qattiq qurg'oqchilik vaqtida Olloh taolaga sig'inish ma'rakalari Hazrati Xizr va Shohi Zindada bo'lib o'tgan. Vaqf hujjatidagi muhrda 1239 hijriy (1823-1824) sana bitilgan. Ushbu hujjatdan ko'rinib turibdiki, o'sha davrda masjid faoliyat ko'rsatib kelgan. Masjidga kiraverishdagi marmar toshida ko'rsatilgan 1854 yil sanasi uning faqatgina ta'mirlanish sanasi bo'lganligini tasdiklaydi.

Masjid supa simon tabiiy asosda qurilgan. Ancha tik zinadan ko'tarilib darvozaxonaga, so'ng to'g'risidagi eshikdan kichkina xonaga kiriladi. Chap tomondagi eshikdan peshayvonga o'tiladi.

Imoratning pesh ayvoni ancha hashamatli chiqqan. Uningbezagida izorasi (paneli) ham, hoshiyali naqsh pannolari va hoshiyali turunj (medal'ok)lari ham, ikki qatorli marafa (stalaktit) karnizlari ham o'ziga juda mos tushgan.

Peshayvondan masjid-xonaqohiga kiriladi. Xonaqoh to'rtburchak bo'lib, to'rdagi g'arbiy devorida mehrob, ikkala tomonida hujralar bor. Xonaqoh izorasida to'g'ri burchakli rasmlar nusxasi solingan.

Masjidning peshayvoni ancha baland asos-poydevor ustiga tushgan va g'arb tomonda guldasta bilan tugallangan. Peshayvonning yuqori qismiga g'ishtdan dandana qilib terilgan. Sharq tomondagi darvozaxona peshtoki masjidning tarkibiy qismidir. Darvozaxonaning ikkala tomoniga guldasta qilingan, peshtok darvozasiga o'ymakor naqsh solingan. Bu qator sharq tomonda qad ko'tarib turgan minora bilan tugallanadi.

Binoning badiiy-dekorativ asosi binokorlik konstruktsiyalari talablariga to'la javob beradi. Masalan, shaklli turunjlar to'siqlarning davomidek birlashib ketgan. Peshtok va minoradagi qirma usulidagi mayda g'ishtlar kuzatuvchida bahaybat, ulug'vor manzara ta'sirini qoldiradi.

Masjidning tiklangan va ta'mir qilingan vaqtlari yozilgan ma'lumotlar binoning turli yerida uchraydi. Masalan, xonaqoh mehrobi teppasiga 1854-yilda qayga qurilganligi



to'g'risida yozuv bor. Undan quyiroqda 1884-yil deb yozilgan. Bu xonaqoh, masjidni ta'mirlangan vaqtini ko'rsatuvchi sana bo'lsa kerak.

1899 yilda peshayvon qayta qurilgan. Sharq tomondan kiriladigan darvozaxona ham o'sha yili qurilgan bo'lsa kerak. Darvoza yuzasiga yozilgan sana (1915) darvozaxonaning qayta tiklangan vaqtini ko'rsatadi. O'shanda Janubi-Sharqiy peshtoq va sharq tomondagi minora qurilgan. Peshtoqqa rahli gumbaz qilingan. Minora eshigi tepasida Usta Abduqodir ibn Boqi Samarqandiy degan yozuv bor. Ayvon bilan darvozaxona va minoraning arxitektura jihatdan ana shu tarzda joylanishi imoratning bosh me'mori usta Abduqodir Bokiev (1860-1933) rejasidir. Respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: «...Har kaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, xayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi»[2].

Hazrati Xizr masjidi xalq arxitekturasining yodgorligi sifatida-davlat muhofazasiga olingan. Ayniqsa mustaqillik davrlarida ta'mir ishlari keng miqyosda olib borilmoqda. 1995-1996 yillarda kapital ta'mirlandi. Samarqand ustalari katta mahorat bilan minora va darvozaxonalarni ta'mir etishdi. Rang-barang naqshin bezaklarni mustahkamlash va qayta tiklash sohasida juda nozik ishlar olib borilmoqda.

Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy, va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi» deb belgilangan [3].

Masjidning maydoni 30X16 kv.m., uning yonida eng qadimiy va muqaddas «Arziz» qudug'i mavjud bo'lib keyinchalik qo'milib ketgan. 2002 yil sentyabr oyida «Arziz» qudug'ini butunlay tozalatib, asli qadimiy holatga keltirilgan. Bu quduqning umumiy chuqurligi 40 metrdan ziyodroq bo'lib, hozirgi vaqtda suvi zilol holdadir. 2006 yil Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov tashabbuslari bilan Hazrati Xizr masjidi va atrofi qayta kapital rekonstruktsiya qilindi. Masjidga chiquvchi zina, katta tahoratxona va masjid atroflari obodonlashtirildi. Hazrati Xizr oldi tomonidan yangi yo'llar barpo etildi. Masjiddan to Shohizinda majmuasigacha, yana bir tomoni Bibixonim maqbarasi va Amir Temur Jome' masjidigacha katta bog'lar barpo etildi.

Buyuk davlat va siyosat arbobi Islom Karimov 2016 yil 3-sentyabr kuni o'z vasiyatiga ko'ra Samarqand shahridagi Hazrati Xizr masjidi majmuasida dafn etildi. Yodgorlik majmuasini barpo etish ishlari YuNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda



amalgama oshirildi va butun jahon madaniy merosining ob'ektlaridan biri hisoblangan. Hazrati Xizr masjidiga uyg'un maqbara loyihasi tasdiqlandi.

Majmua qurilishiga yurtimizning turli hududlaridan mohir quruvchilar, usta va hunarmandlar jalb etildi. Maqbara uchun xorijdan qimmatbaho toshlar, ayvon ustunlari va zina panjaralari, yozuvli oq oniks va onks toshlari keltirildi. Maqbara ichiga oq qabr toshi o'rnatildi. Devorlari qimmatbaho toshlar bilan bezatilib, ularga oltin suvi bilan ishlov berildi. Maqbaraning pastki qismi yashil oniks toshlari bilan qoplangan. Gumbazi Hazrati Xizr majmuasi bilan hamohang tarzda barpo etilgan. Majmua hududida milliy uslubda ayvon ham barpo qilingan. Ayvon peshtoqlarida Qur'oni karim oyatlari hamda Islom Karimovning hikmatli so'zlari o'zbek, arab va ingliz tillarida yozilgan. Ziyoratchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida lift, imkoni cheklanganlarga uchun ko'targich moslamalar o'rnatilgan.

Maqbaraga kirish qismida "Bu tabarruk maskan O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, buyuk davlat va siyosat arbobi, o'zbek xalqining aziz va ardoqli farzandi Islom Abdug'anievich Karimovning mangu oromgohidir".

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev Samarqand shahrida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov maqbara majmuasining ochilishiga bag'ishlangan marosimda: "Ne-ne buyuk voqealarga guvoh bo'lgan, qancha-qancha ulug' zotlar mangu orom topgan bu ko'hna zaminda, Hazrati Xizr va Shohi Zinda ziyoratgohlari yoniga bugun yana bir qutlug' qadamjo qo'shilmogda. Hammangiz xabardorsiz, o'zlarining vasiyatiga binoan Birinchi Prezidentimiz aynan mana shu muborak maskanga dafn etilgan edi.

Albatta, biz bu yodgorlik majmuasini keng va katta maydonda, juda mahobatli qilib qurishimiz ham mumkin edi. Lekin bir haqiqat hammamizga yaxshi ayon: rahmatli Islom aka g'oyat kamtarin, samimiy, oddin inson edilar. Ortiqcha hashat va dabdabani yoqtirmas edilar.

Ko'pni ko'rgan, donishmand xalqimiz yaxshi tushunadi: ulug' shaxslar xotirasiga bunyod etilgan yodgorlik obidalarining qimmati, avvalo, ana shu insonning o'z xalqi va Vatani, kelgusi avlodlar oldidagi ezgu va savobli ishlari, odamlar qalbida qoldirgan so'nmas xotirasi bilan o'lchanadi.

...Ishonchim komil bugun ushbu maqbarani ochilishi bilan ziyoratchilar oqimi yanada ko'payadi. Bu maskan odamlar, ayniqsa yosh avlodimizning qadami hech qachon uzilmaydigan muqaddas ziyoratgohga, katta tarbiya maskaniga aylanadi.

Yodgorlik majmuasini ziyorat qilishda muhim bir jihatga alohida e'tibor berishingizni so'rar edim. Maqbara peshtoqlariga muqaddas Qur'on oyatlari va hadis namunalari bitilgan bo'lib, ularda teran ma'no mujassam. Bu ilohiy kalimalar



har qaysi insonni ma'naviy jihatdan poklanishga, hayotning ma'no-mazmunini chuqurroq anglashga da'vat etib turadi" [4].

Bugungi kunda bu joy, majmua nafaqat mahalliy ziyoratchilarning, balki butun dunyodan Samarqandga tashrif buyurayotgan ziyoratchilarning ham muqaddas qadamjosi sifatida qadrlanmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Abu Tohirxoja. Samariya.T «Kamalak» 1991, 23-bet.
2. Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» T.«Ma'naviyat» 2008 y. 29-30-betlar
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent «O'zbekiston» nashriyoti. 2023 y. 61-modda, 25-bet.
4. "Xalq so'zi" gazetasi 2018 yil 31-yanvar, 20-son)

